

**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI IJODIY HIKOYA TUZISHGA O'RGATISHDA
MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI O'QITISH METODIKASI**

Egamberdiyeva Muqaddas
Guliston davlat universiteti
tayanch doktaranti

Anatatsiya: *Mazkur maqolda multimedia asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda multimedia vositalari orqali o'qitish metodikasi haqida ilmiy ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Qiziqish, qobilyat, kompyuter, ijodkorlik, kollektiv,multimedia, texnalogiya, nutq, kreativ,g'oya.*

Anatomy: *This article provides scientific information on the methodology of teaching children through multimedia tools in the preparation of children to create a creative stories based on the multimedia basis.*

Keywords: *Interest, ability, computer, creativity,collective, multimedia, technology, speech, crative, idea.*

Анатация: В этой статье содержится научная информация о методологии обучения детей с помощью мультимедийных инструментов в подготовке детей к созданию творческих историй, основанных на мультимедийной основе.

Ключевые слова: *Интерес, способность, компьютер, творчество, коллекционер, мультимедиа, технология, спецификации, Crative, Idea.*

Tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda multimedia vositalari orqali tashkil etilgan o'quv faoliyati zamonaviy tashkil etilgan faoliyat bo'lib, u orqali bolalarning turli faoliyatlarini orqali bilimlarini ossonlik bilan o'zlashtirishga erishish mumkin, bu bolalarga o'rganilayotgan bilmlarni alohida idrok etishga, amaliy yo'nalishga erishish imkonini beradi.

Multimedia vositalari yordamida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda quyidagi metodikaga amal qilish mumkin:

1. Maqsad va vazifalar:

* Maqsad: Bolalarda ijodiy hikoya tuzish qobiliyatini rivojlantirish, ularning tasavvur va fikrlash qobiliyatlarini oshirish, tilni rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish.

* Vazifalar:

* Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

* Bolalarga ijodiy hikoya tuzishning bosqichlari (mavzu tanlash, g'oyalarni rivojlantirish, hikoyani tuzish, yozish, taqdim etish)ni o'rgatish.

* Multimedia vositalaridan foydalanib, bolalarga hikoyalar yaratishga o'rgatish.

* Bolalarning ijodiy hikoyalarini baholash va ularni rag'batlantirish.

2. O'quv jarayoni:

- * Bosqich 1: Qiziqishni uyg'otish:
- * Bolalarga qiziqarli rasmlar, videolar, audio yozuvlar yoki animatsion filmlar ko'rsatish.
 - * Hikoya tuzishga oid o'yinlar o'ynash (masalan, "Sehrli quti" o'yini: qutidagi narsalar asosida hikoya tuzish).
 - * Bolalardan o'zlarining qiziqarli voqealarini so'rash va ularni tinglash.
- * Bosqich 2: Tasavvurni rivojlantirish:
 - * Bolalarga turli xil hayvonlar, o'yinchoqlar, sehrli voqealar va boshqa tasvirlarni ko'rsatib, ularning tasavvurlariga ilhom berish.
 - * "Sehrli tayoqcha" o'yini: tayoqcha bilan biron-bir narsaga tegizib, uni hayotga olib kelish va shu narsa haqida hikoya tuzish.
- * Bosqich 3: Hikoya tuzishning bosqichlari:
 - * Hikoya tuzishning asosiy elementlarini (qahramonlar, joy, vaqt, voqe) o'z ichiga oluvchi shablonlarni taklif qilish.
 - * "Hikoya diagrammasi" usulini qo'llash: bolalarga voqealarning ketma-ketligini tushunishga va uni qog'ozga tushurishga yordam berish.
 - * Hikoyani yaratishning turli xil usullarini o'rgatish: qahramonlar haqida fikr yuritish, voqealarni rejalashtirish, qiziqarli dialoglar yaratish.
- * Bosqich 4: Hikoyani yozish:
 - * Bolalarga hikoyalarni yozish uchun shablonlar, dasturlar yoki o'yinlarni taklif qilish.
 - * Bolalarga o'z hikoyalarini yozishda yordam berish, ularning g'oyalarini yozib olishga yordam berish.
- * Bosqich 5: Hikoyani taqdim etish:
 - * Bolalarga o'z hikoyalarini o'qish, aytib berish yoki namoyish etish imkoniyatini berish.
 - * Hikoyalarni teatrlashtirilgan tomoshalar shaklida namoyish etish.
 - * Hikoyalarni video yoki audio yozuvlar shaklida yozib olish.

3. Multimedia vositalaridan foydalanish:

- * Rasmlar: Bolalarning tasavvurlarini rivojlantirish, ularga hikoya uchun g'oyalar berish.
- * Videolar: Hikoyalar yaratish uchun ilhom berish, voqealarni ko'rsatish, turli xil madaniyatlar va xalqlar haqida bilimlar berish.
- * Audio yozuvlar: Hikoyalarni o'qish, musiqa tinglash, tovushlarni taqlid qilish.
- * Animatsion filmlar: Tasavvurni rivojlantirish, bolalarni qiziqtirish, hikoya yaratishga ilhom berish.
- * O'yinlar: Hikoya tuzishning bosqichlarini o'rgatish, bolalarning ijodiy faolligini oshirish.

4. Baholash va rag'batlantirish:

* Bolalarning ijodiy hikoyalarini baholashda ularning ijodiy qobiliyatlarini, hikoyaning mazmunini, tilni ishlatalish qobiliyatini va taqdimotning sifatini hisobga olish kerak.

* Bolalarni ijodiy hikoyalarni yaratishda faol ishtirok etish uchun rag'batlantirish, ularning muvaffaqiyatlarini ta'kidlash, ularning harakatlarini maqtab, o'zlariga ishonch hosil qilishga yordam berish kerak.

5. Tarbiyachilarning roli:

* Tarbiyachi bolalarning ijodiy jarayonini yo'naltirish, ularga maslahat berish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish, ularning ijodiy faolligini oshirishga harakat qilishi kerak.

* Tarbiyachi multimedia vositalaridan samarali foydalanishni, ularni ta'lif jarayoniga moslashtirishni o'rganishi kerak.

* Tarbiyachi bolalarni multimedia vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish, ularning ko'rish qobiliyatini saqlashga e'tibor berish kerak.

Ushbu metodikaga amal qilish orqali tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin.

Mana shunday tashkil etilgan mashg'ulotda tarbiyachi bir nechta rivojlanish muammolarini hal qilishi, bolalarning bilimlarini jamlashtirishi, umumiy faoliyat usulini o'rgatb borishi, bolalar nutqini yanada mustaxkamlashi va birgalikdagi faoliyat jarayonida bolalarning o'zaro munosabatlarida tajribalarini jamlashiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin.

Multimedia vositalari orqali tashkil etilgan o'quv faoliyati, birinchi navbatda, bolajonlarga o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi, sababi bolalar o'z ona tili asosida multimedia orqali tashkil etgan ijodiy hikoyalarini, hikoya va ertaklardagi ijobiy va salbiy qaxramonlarni, mustaqil muloqatga kirishish uchun yangi so'zlarni o'rganadi va eng asosiysi bolalar o'zlarining ijodiy qiziqishlarini yanada mustaxkamlab boradi.

Ikkinchidan, qiziqarli va tushunarli tarzda tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilar hamkorlikda rollarga kirishgan holda birgalikda ijodiy hikoyalar tuzadilar, bunda bolalarning so'z boyligi ortadi, nutqning to'g'ri tuzilishi shakllanadi, eng muhimi, diologik va monologik so'zlashuv rivojlanadi — o'z fikrini erkin bayon eta olish, taassurotlarni baham ko'rish, turli g'oyalar kiritish, rollarga kirishish, biron bir o'ylagan narsa haqida gapira olishi orqali bilm doirasi rivojlanib boradi.

Uchinchidan, bolalarda diqqat rivojlanadi, chunki savollar va topshiriqlar orqali bolalarda egallagan bilmlarini mustaxkamlashni hamda multimedia orqali tashkil etilgan faoliyat jarayonida hayotiy tajribalari orqali boyitishni talab qiladi.

Shunday qilib, multimedia maktabgacha ta'lif tashkilotining deyarli hamma faoliyat jarayonlarida mustaqil foydalana olinadigan bir tizim bo'lib, maqsadlar, vazifalar, mazmun, shakllar, vositalar, usullar, uslublar, yondashuvlar, shartlar, muhit va resurslarini o'z ichiga oladi.

Multimedia orqali tashkil etilgan faoliyat turli ta'lim sohalari bo'yicha bilimlarni birlashtiradi hamda bir-birini doimo to'ldirib boradi. Ushbu jadvalda Ilk qadam tayanch dasturidagi maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori keltirilgan.

(2.3.1-jadvalga qarang).

2.3.1-Jadval

Maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdori

№	Bolalar faoliyati turlari	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri		
		bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog'lomlashtirish davrida	bir hafta ichida	bir oy ichida	Sog'lomlashtirish davrida
	Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish		72	2			18
	Badiiy adabiyot		36	O'yinlar , viktorinalar – 1			12
		Kunduzgi uyqu ko'zda tutilmaganda uyqidan oldin o'qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o'qish tavsiya etiladi					
	Mintaqaviy komponent	Mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, o'quv rejasini 20% gacha MTT komponenti bilan shakllantirish tavsiya etiladi, MTT ixtiyoriga ko'ra faoliyat turlaridan birini almashtirish ko'zda tutilgan.					

Quyida nutq o'stirish mashg'ulotlarida foydalanish uchun ta'lim berish texnologiyasining modellari va o'quv mashg'ulotining texnologik xaritalari ishlab chiqib, joylashtirilgan. (2.3.2 - jadvallarga qarang)

2.3.2-Jadval

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mavzu: "Sabzavot va mevalarni farqlash".

Mashg'ulot rejasি:	<ol style="list-style-type: none"> "Sabzavot va mevalarni farqlash" Meva va sabzavodlarning shakli, rangi, katta-kichikligi, mazasini farqlashga o'rgatish. Mavzuga oid Abdulla Avloniyning "Aqli bog'bon" hikoyasining multimedia orqali tinglash va topshiriqlarni bajarish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Bolalarga meva va sabzavotlarning foydali tomoni haqida tushuncha berish. Bog'bon va dexqonlarning mehnati bilan tanishtirish. Mavzuni didaktik o'yinlar va multimedia orqali tushuntirish.

Pedagogik vazifalar: mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; mavzuga oid hikoyalarni tinglash va mustaqil hikoya tuza olish ko'nikmalarini hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Tarbiyalanuvchi: ko'rib tushunish ko'nikmasining hosil bo'lishi; hikoya tuza olish ko'nikmasining shakllanishi; meva va sabzavotlarning nomini to'liq o'rganish.
O'qitish uslubi va texnikasi:	Ko'rgazmali, suhbat, klaster
O'qitish shakli	Tayyarlov guruh
O'qitish vositalari	Kompyuter, televizor, slaydlar
O'qitish sharoitlari	Metodik jihatdan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki, savol-javob, kompyuterda mavzuga doir hikoyalar, test va topshiriqlar.

2.3.2-Jadval

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mavzu: “Sabzavot va mevalarni farqlash”.

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lif beruvchi: Tarbiyachi	Ta'lif oluvchilar: Tarbiyalanuvchilar
I Taylorov bosqichi	1.1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi; 1.2. Tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotga tayorgarligini tekshiradi.	Darsga tayyorlanadilar
II O'quv mashg'uloti ga kirish bosqichi	2.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi. 2.2. Mavzu uchun taqdimot slaydlarini taylorlaydi	Tinglaydilar va tomosha Qiladilar
III Asosiy bosqich	3.1. Tarbiyalanuvchilar e'tiborini jalg etish uchun mavzu bo'yicha tezkor savol-javob o'tkazadi. Masalan: <i>Yoqtirgan mevalaringiz qaysilar?</i> <i>Sabzavotlardan qaysilari sizga yoqadi?</i> 3.2. Kompyuter, proektor, slaydlar, multimediyalardan foydalananadi; 3.3. “Aqilli bog'bon” hikoyasi audiosi monitor ekranida chiqadi hamda bolalarning birgalikda jo'r bo'lib hikoyani tingleshini nazorat qiladi;	Tinglaydilar savollarga javob Beradilar Hikoya qilib berishadi

**FRANCE international scientific-online conference:
“SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM”
PART 26, 5th JUNE**

	<p>3.4. “Aqilli bog’bon” haqidagi hikoya yuzasidan berilgan topshiriqlarni nazorat qiladi:</p> <p>3.5. Bolalarga oldindan rangli qalamlar,</p> <p>qog’ozlar, qaychi va elim tarqatadi, chunki bolalar uchun hordiq chiqarish maqsadida 15 daqiqaga mo’ljallangan mavzuga oid didaktik o’yinni o’tkazadi. O’yinning nomi</p> <p><i>“Mening sevimli daraxtim”</i> deb ataladi.</p> <p><i>“Sevumli daraxtim”</i> didaktik o’yini:</p> <p>Har bir bolaga rangsiz daraxt tasvirlangan</p>	<p>Bu audio hikoya orqali bolalar mexnatkashlikni hamda mustaqil mavzuga oid o’zlari ham hikoya qilib berishni o’rganishadi.</p>
--	--	--

	<p>rasm beriladi. Tarbiyachining quyidagi buyrug’i bilan vazifa bajariladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bolajonlar ushbu qo’lingizda rangsiz daraxt rasmi hamda mevalar jamlanmasi bor, sizlar ushbu daraxtga o’zingiz yoqtirgan mevangizni yopishtirib ranga bo’yab chiqasiz. 2. Tayyor bo’lgan sevimli meva daraxtingizga nom berasiz. <p>Rasm taylor bo’lgandan so’ng, tarbiyachi</p>	Vazifa
		Bajariladi
		Kichik guruhlarga
		bo’linadilar
		bolalar rasmni

	<p>bolalarning ismini rasmning burchagiga yozib, bo'yashadi va devorlarga ilib chiqadi va quyidagi savollarni beradi:—<i>Bu inglizchada nomlarini qanday mevali daraxt?!</i>, <i>—Sizga kimning mevali daraxti yoqdi?</i></p> <p>Rasm tayyor bo'lgandan keyin bolalar nafaqat mevalarni, ranglarni hamda shakillarni o'rghanishadi.</p> <p>Bolalar uylariga ketish vaqtida rasmlarni o'zları bilan olib ketishlari</p> <p>mumkin.</p> <p>Mavzu asosida berilgan ma'lumotlarni bo'lib o'ynaydilar Kichik umumlashtiradi va bolalarning o'rgangan bilmlarini tekshirish guruhlarga maqsadida Klaster metodidan foydalanadi va xulosalaydi, hamda faol ishtirokchi bolani rag'batlantiradi va baholaydi.</p>	<p>bo'yashadi aytishadi</p> <p>Eshitadi.</p> <p>Tomosha qiladilar</p> <p>Yakka yoki juft bo'lib o'ynaydilar Kichik guruhlarga bo'linadilar</p>
IV Yakuniy bosqich	4.1. Uyga vazifa: “Aqilli bog'bon” hikoyasini multimedia orqali qayta tinglash hamda mustaqil mavzudan chetlashmagan holda “Mening sevimli mevam” yoki “Mening sevimli sabzavotim” nomli audio hikoya (ota-onal ko'magida) tuzishga beriladi.	Tinglaydi

Yuqoridagi didaktik loyihalashtirilgan “Sabzavot va mevalarni farqlash”. nomli mashg'ulot ishlanmasini olib borishda ta'lim vositalari – texnik vositalar, kompyuter vositalar, didaktik o'yinlar va o'quv-uslubiy materiallar asosiy omillar sanaladi hamda mashg'ulot jarayonida o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi usullar hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday mashg'ulotlar tizimli etkazib berishga yordam beradi, tarbiyalanuvchilarga o'quv materialini tushunishlariga, mustahkamlashlariga va yaxshi eslab qolishlariga juda kata yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning puxtalik va mustahkamlik darajasi, nutq boyligi, dars jarayonida egallagan bilimlari va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan “Sabzavot va mevalarni farqlash” mavzusini o'rganish jarayonida “Sevimli daraxtim” o'yini tashkil etildi. Yangi mavzuni o'rganish bosqichida sevimli daraxtingizni mevalar bilan joylang hamda bo'yang didaktik o'yini tashkil etilganda bolalar nafaqat rasmni bo'yashdi, balki sevimli mevalarini ranglari hamda shakllarini ajratishni hamda ularni to'g'ri talaffuz etishni o'rganishdi. Guruhlararo o'yinlar bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirdi va natijada so'z boyliklari

ortib bordi. Demak, har qanday o'yinga tayyorgarlik davrida uning maqsadini aniq belgilash zarur. O'yin qatnashchilarini uning qoidasi bilan to'liq tanishtirish lozim. O'yin qoidalarini og'zaki tushuntirish bilan chegaralanmay, aniq ko'rsatmalar berish, estaliklar tuzib bolalarga tarqatish ham foydali bo'ldi. Bolalarga yangi bilimlarni mustaqil o'rganishlari uchun yordam beradigan o'yin xususiyatlariga kompyuter vositalari, jumladan multimedia orqali audio hikoyalar ham ko'mak berdi. Yanada mustaxkamlash uchun esa uyga vazifa sifatida "Mening sevimli mevam" yoki "Mening sevimli sabzavotim" nomli audio hikoya (ota-onha ko'magida) tuzish berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 32-33.
2. Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018- yil 18- iyundagi 1-MH sonli " Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talabları" // www.lex.uz
3. Alimov SH. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan'anaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlar. Andijon 2009. – B. 12-15.
4. Axmedov A.A. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Qarshi.: 2002. 110 b.
5. Макарова В.Н, Ставцева Е.А. (2018). Использование мультимедийных средств в развитии природоведческой лексики детей дошкольного возраста. "Наука и обозрение". 271 С.
6. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2, C. 78-79.